


144. Shakllarning hajmi

Yondosh mavzu:
foydali ichimliklar

Hajm, sirt.



1. Ushbu shakllarni qanday uchta guruhga ajratish mumkin?



Ulardan qaysilarining uzunligini bilish mumkin?
Yuzini-chi? Hajmini-chi?



2. Do'konga har birida 3 litrdan bo'lgan 25 banka olma sharbati va har birida 2 litrdan bo'lgan 12 banka nok sharbati keltirildi. Ichimliklarning umumiy hajmini toping.



3. Qutining bo'yi 12 santimetr, eni 4 santimetr, balandligi esa 2 santimetr. Shunday qutiga tomoni 1 santimetr bo'lgan o'yin kubiklaridan nechta sig'adi?




4. Usta muz kubiklaridan shakl yasadi. Buning uchun unga nechta muz kubigi kerak bo'lgan?



Shaklning hajmi – bu shakl fazoda qancha o'rnini egallashini ko'rsatuvchi kattalik. Hajmni aniqlash uchun o'lchovlardan foydalanish mumkin, masalan, suyuqlikning hajmi, odatda, litrlar bilan o'lchanadi.



5. Qutining tubiga nechta kubik sig'adi?



7 ni 2 ga ko'paytirib qanday kattalikni aniqlash mumkin? Bu qutida bunday qatlamlar nechta? Qutiga hammasi bo'lib nechta kubik sig'adi? Demak, qutining hajmi ... ni tashkil etadi.



6. Bitta cho'pning o'rnini shunday almashtiringki, natijada to'g'ri tenglik hosil bo'lsin.



7. Sharbat qutisining tubi tomoni 7 santimetrga teng kvadratdan iborat, balandligi esa 20 santimetrga teng. Qutining hajmini toping.



8. Hisoblang.

$$10 \cdot 5 \cdot 3$$

$$31 \cdot 3 \cdot 4$$

$$12 \cdot 4 \cdot 5$$

$$18 \cdot 4 \cdot 7$$

$$22 \cdot 4 \cdot 8$$

$$42 \cdot 2 \cdot 3$$